



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### “MUZAKKIRU-L-ASHOB” TAZKIRASINING QO‘LYOZMA NUSXALARI QISQACHA TAVSIFI

**Raxmatullaev Nodir Nuritdinovich**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik oliy maktabi*

*tayanch doktoranti Toshkent, O‘zbekiston*

[raxmatullaevnodir@gmail.com](mailto:raxmatullaevnodir@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada “Muzakkiru-l-ashob” tazkirasining qo‘lyozma nusxalari, ularning saqlanish holati, palaeografik va kodikologik xususiyatlari hamda mazmuniy tarkibi qisqacha tavsiflanadi. Tazkiraning turli kutubxona va fondlarda mavjud bo‘lgan qo‘lyozma variantlari o‘zaro solishtirilib, ularning matn tuzilishi, sahifalanishi, yozuv uslubi, muqova materiallari va bezak elementlari bo‘yicha farqlari aniqlanadi. Shuningdek, qo‘lyozmalarda uchraydigan matn farqlari, qo‘shimcha izohlar, marginaliyalar va nusxa ko‘chirishdagi xatoliklar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot “Muzakkiru-l-ashob” tazkirasining ilmiy muomaladagi ahamiyatini yoritib, uning qo‘lyozma an‘anasi va tarixiy - madaniy qadriyat sifatidagi o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *“Muzakkiru-l-ashob”, tazkira, qo‘lyozma, qo‘lyozma an‘anasi, kodikologiya, palaeografiya, matnshunoslik, qo‘lyozma tavsifi, nusxa farqlari, marginaliyalar, tarixiy manbashunoslik*

Hozirga qadar topilgan Maliho Samarqandiyning tazkirasini 6 ta qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №58/I, 58/II, 2727/III, 2727/IV, 2613/I, 4270-inventar raqami ostida saqlanmoqda. Shuningdek, Shamsiddin Sharafiddin o‘g‘li Xurshidning “Muzakkiru-l-ashob” tazkirasidan Temuriylar haqida qilingan tarjimasi o‘rin olgan 8888-inventar raqami ostidagi qo‘lyozma nusxasi ham mavjud. Barcha mavjud qo‘lyozmalar ikkita tahrirda – to‘liq va qisqa shaklda saqlanib qolgan. To‘liq tahrirning qo‘lyozmalari (ular o‘rtasidagi ba‘zi farqlar inobatga olinmasa) o‘z ichiga alifbo tartibida joylashtirilgan 200 dan ortiq shoirning biografiyasini qamrab olgan, ularda keltirilgan shoirlar ijodlaridan namunalar to‘liq qisqartmasiz keltirilgan. Qisqa tahrirda 165 shoir haqida biografik ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ba‘zi bir boblarda shoirlarning she’rlari qisqartirilgan yoki umumuan berilmagan. Alohida boblarda she’rlarning boshlang‘ich ikki satri (matla’) keltirilgan, bazilarida esa tashlab ketilgan.

Qo‘lyozmalarning qisqacha tavsifiga kirishilganda quyidagi natijalar olindi:

Qo‘lyozmaning 2727/III qayd raqamli nusxasi

Ushbu asarning nomi keyinroq satr ustidagi matnga ruscha binafsha siyoh bilan yozilgan (13b varaq); birinchi varaqda raqamlangan varaqlardan oldin eski bir yozuv bor:

تذکره الشعرا قاضی بدیع ثمرقندی

Tarjimasi: Qozi Badi Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”si.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Matn xati muallif bilan zamondosh ekan. O'lchovi 12,5×25 ga teng. Varag'i 177 (7b-183b)ni tashkil etadi. Matn uchun 21 ta yo'l (sitr) mavjud. Tili forsiyda yozilgan.

Asar ushbu misralar bilan boshlanadi:

مصرع بر جسته نظم قدیم مصرع موزول کلام آله

Tazkiraning oxirgi matni quyidagicha yakunlanadi:

وطبع لطف را بطریق مداومت در... این کار صرف داشت... و عمر... کرده بعده مجالس مذکور آمده

Mazkur nusxaning nuqsoni bu tazkiraning oxiri yo'q, yo'qolganligidadir.

Qo'lyozmaning 2613/I qayd raqamli nusxasi

XVIII asrda ravon nastaliq xatida ko'chirilgan. Ushbu nusxaning yozilgan yili 1100/1688 ga to'g'ri keladi. Uning varaqlari o'lchovi 15x25 bo'lib, 139 (1b-139b)ni tashkil etadi. Fors tilida yozilgan va 19 ta yo'l (sitr)ga ega.

Ushbu nusxaning boshlanishi quyidagicha:

مصرم موضوعون کلام اله صاحب تقطیع و بری زاشتبه

Matnnig oxiri 79 varaqdan keyin bir nechta varaqlar va oxirida ham 60 varaq yo'qligi sababli quyidagicha yakunlanadi:

کار حرف داشت چند گاه مستور و عمری مستعد دهری تخلص می آده بعده تخلص مذکور

Qo'lyozmaning 58/I qayd raqamli nusxasi

Bu qo'lyozma nusxa 1274/1897-yilda ko'chirilgan bo'lib, o'rtadagi ko'plab varaqlari yo'qolgan va keyinchalik qora va binafsha siyoh bilan yozib to'ldirilgan. Muallif haqida ma'lumot ushbu qo'lyozmaning 145b va undan keyingi varag'ida berilgan. Uning o'lchovi 15x26,5 ga teng. Varaqlari soni 255 (1b-255b)ta bo'lib, 17 ta yo'l (sitr)ga ega va matni forsiyda bitilgan.

Boshlanishi: يا فتاح القلوب بسم الله الرحمن الرحيم مصرع بر حسبته نظم قدیم مصرع موزون کلام آله صاحب تقطیع بری زاشتبه

Oxiri: شهرة شاعران قاضی بدیع در فصاحت اگر چه او خوب است هر که اشعار خویش گردی در بیاض بدیع مکتوب است

Kolofon: الحمد و المنة انجام یافت این جمع پریشان و اختتام پذیر فت این اوراق پرافشان در اسعر ساعات ولیمین اوقات یوم الخمیس تب دوم جمید الثانی غی سنه 1376 در بخارای شریف در گزد کوی مرغکش در حجره مسجد مزک

Qo'lyozmaning 2727/IV qayd raqamli nusxasi

Ushbu asarda Muhammad Badi' tilga olmagan ba'zi shoirlar va shoirlarning tarjimai holiga aloqador bo'lmagan narsalar haqida ma'lumotlar qo'shilgan holda, betartib tarzda tayyorlangan.

Ba'zi yozuvlar muallif bilan zamondosh bo'lib ko'rinadi.

O'lchovi 12,5×25 ga teng. Varag'i 41 (184a-225a) tani tashkil etadi. 13 ta yo'l (sitr)dan iborat bo'lib, matni forsiyda yozilgan.

Boshlanish matni: فعل بدانکه ادای نماز در وقت خرض است

Oxiri: و نیز این نقل مشهور ست که حلمای ما تقدم را دستور چنان بوده که هر گاه که بر سر بیماران رفتند... خوش بر کشید ندر بیماران صحت تمام یافتندی

Ushbu asarning asl boshlanish matnining yo'qligi nusxaning nuqsonidan dalolat beradi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Qo'lyozmaning 58/II qayd raqamli nusxasi

Kotibi ko'rsatilmagan. Sarlavhasiz. Oldingi asarga kiritilmagan shoirlarning tarjimai holi qo'shimcha qilingan (alifbo tartibida joylashtirilgan). Matn avvalgisi bilan bir xil vaqtga to'g'ri keladi. Yozilgan yilini faqat asr ko'rsatkichida aniqlash imkoni bo'ldi, ya'ni XVII asr. O'lchovi 15x26,5 ga teng va varaqlari soni 83 (225a-307b; shundan 11 varaq bo'sh) tani qamrab olgan. Yo'li (satr) 17 ta, tili forscha.

Boshlanish matni: مولانا امير كانگی از موالی كرام قزوین است حافظ كلام مجید بود و از علم نحو و قوف تمام داشت

Oxirgi matni: خرمی در خاک غربت نیست من همچون نهال مشت خاکی از وطن آی کائی می برداشتم

Nuqsoni uning boshi va oxiri yo'qligida.

Qo'lyozmaning 4270 qayd raqamli nusxasi

Ushbu tarjimada muallifning asosan zamondosh shoirlarining tarjimai holi va ijodidan namunalar jamlangan. Yozilgan yili asar sarlavhasida xronogramma orqali yashiringan bo'lib, abjadga ko'ra harflarining raqami 1903, ya'ni 1093/1682 ga to'g'ri keladi.

Keyinchalik, 1103/1691-1692-yillarda muallif asarga "Qo'shimcha" yozadi, jumladan, unga tazkirani dastlabki tuzish chog'ida unutilib qo'ygan shoirlarning tarjimai holi yoki keyinroq tanishgan shoirlarini kiritadi. "Qo'shimcha"da Samarqanddagi muhim voqealar tavsifi va madaniyat tarixiga oid ma'lumotlar ham mavjud.

Biroq, Maliho 1103/1691-1692-yildan keyin ham o'z tazkirasini to'ldirishda davom etgan, to'liq bo'lgan qo'lyozma nusxasida ko'rsatilgan 1104/1692-1693-yil sanasi buni isbotlab turibdi.

Boshlanishi (basmaladan keyin) quyidagicha:

مصرع بر جسته نظم قدیم

بسم الله الرحمن الرحيم

Qayta tiklangan nuqsonli ro'yxat; asosiy qismi yaxshi sifatdagi qaymoqli sharq qog'ozida shikasta elementlari bilan nastaliqda qayta yozilgan; ko'p varaqlarning chetida matnga asosiy matn bilan bir xil qo'lda yozilgan qo'shimchalar va tuzatishlar mavjud. Ro'yxatda 170 ta shoir (1a-287b varaqlaridagi asarning asosiy qismida 150 ta shoir, 288a-320b varaqlardagi "Qo'shimcha"da 20 ga yaqin shoir) haqida ma'lumotlar keltirilgan. 1a—36b, 158a-187b varaqlari Qo'qon qog'oziga yozilgan va keyinchalik restavratsiya paytida kiritilgan. Kotib va ko'chiruvchisi noma'lum. Ro'yxatning asosiy qismi sharq qo'lyozmalari bo'yicha mashhur mutaxassis, O'zbekiston SSR FA Sharqshunoslik institutining sobiq ilmiy xodimi I.Odilov (1944 y. vafot etgan) ko'rsatmalariga ko'ra muallif dastxatiga oiddir.

Buni paleografik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Qo'lyozmaning qayta tiklangan varaqlari XIX asr boshlariga to'g'ri keladi. Nuqsoni oxirida 20 ga yaqin varaq yo'q.

O'lchovi 12x18,5 ga teng. Varaqlar soni 320+14 (321a-334a) tani tashkil etadi. Yo'li (satr) 17 ta bo'lib, tili forscha.

Boshlanishi: بسم الله الرحمن الرحيم مصرع بر جسته نظم قدیم

Oxirgi matni: همچو دریا با همه نفع رسان باید بود نه حویل باش که یک رهگذری اسامد

8888 qayd raqamli qo'lyozma nusxa

Asar muallifi dastxati bilan varaqning bir tarafiga yozilgan.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Asar nomi: مذكر الاصحاب تذكره سيدن كورمير بلان تيمور مدرسه سي حقيداكى معلوماتار ترجمه سي  
(Muzakkiru-l-as'hob tazkirasidan Go'ri Mir bilan Temur madrasasi haqidagi ma'lumotlar tarjimasini).

Yozilgan yeri Toshkent. Ko'chiruvchi va Tarjima qiluvchi: شمس الدين شرف الدين اوغلى خورشيد (Shamsiddin Sharafiddin o'g'li Xurshid). Yozilgan yili 1948-yil bo'lib, o'lchovi 21x30 ga teng. Xat turi nasta'liq va varaqlari 18 (1a-18a) tani tashkil etadi. Yo'li (satr) 13 ta, qog'oz turi ishlab chiqarilganligi sezilib turibdi. Tili o'zbekcha (arab alifbosi asosida).

Boshlanishi: مخفى قالمغايكى خاقان صاحبقران امير تيمور كوركان نينك پادشاهلىق دورلاريدە سيد لردن محمد عليه السلام اولادلارى دن سمرقندە ايكي عزيزم

Oxiri: شعرنينك آخرغى مصرعى اجد حسابى بيلان جمع قيلغاندا ملا ولى نينك وفات قيلگان بىلى معلوم بولانور

Kolofon: واقعه امير تيمور كوركان ترجمه قيلغوجى و كاتبى شمس الدين شرف الدين اوغلى ترجمه قيليندى  
1948 نچى بيل 20 نچى اوکوستده تاشکند شهریده

Hozirgi vaqtga qadar aniqlangan yana mazkur tazkiraning Sankt-Peterburg nusxasi, Tojikiston nusxasi mavjud bo'lib, Qobul nusxasi mavjudligi haqida eronlik olimlar tomonidan ma'lumotlar olindi. Lekin bu nusxaning keyingi taqdiri haqida tolibonlar hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng, afsuski, aniq bir ma'lumot yo'q. Yuqoridagilardan ma'lum bo'lyaptiki, 5 ta nusxa majmua tarkibida, faqat 4270-inventar raqamli qo'lyozma esa muallifga zamondosh va to'liqroqdir.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Maliho Samarqandiy. Muzakkiru-l-ashob. Q.№ 58/I, 58/II, 2727/III, 2727/IV, 2613/I, 4270. O'RFASHI.
2. Shamsiddin Sharafiddin o'g'li Xurshid. Muzakkiru-l-ashob (tazkiraning Temuriylarga oid ma'lumotlari haqida qilingan tarjimasini). Q.№ 8888. O'RFASHI.